O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 93/94

***Ulug‘bek H. RAMAZANOV,***
*Tayanch doktoranti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston, Toshkent*
*E-mail: ulugbekramazanov0@gmail.com, ORCID: 0009-0007-4013-1231*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti tarix fanlari nomzodi B.Isakov taqrizi asosida*

# TOSHKENT DAVLAT CHET TILLARI PEDAGOGIKA INSTITUTINING O‘QUV-MODDIY VA IJTIMOIY-MAISHIY BAZASI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH DINAMIKASI (1948–1958)

Annotatsiya

Maqolada Toshkent shahar davlat arxivi hujjatlari asosida Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutining 1948–1958-yillardagi o‘quv-moddiy, texnik, ijtimoiy-maishiy va axborot-resurs bazasi rivojlanishi tahlil qilinadi. Talabalar kontingenti va infratuzilma o‘rtasidagi nomutanosiblik, uch smenali o‘quv rejimi hamda keyinchalik qo‘shimcha bino va yotoqxonalar qurilishi orqali muammoni hal etish bosqichlari ko‘rsatib beriladi. Yozuv mashinkalaridan magnitofonli fonetika kabinetlari va ovoz laboratoriyalarigacha bo‘lgan texnologik o‘sish tahlil qilinib, institut rivojlanishi “tanqislik – kengaytirish – ixtisoslashtirish – texnologik modernizatsiya” bosqichlaridan iborat bo‘lganligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** Toshkent davlat chet tillari pedagogika institute, o‘quv-moddiy baza, moddiy-texnik ta’minot, auditoriya, fonetika kabineti, yotoqxona, kutubxona, chet tillari ta’limi, sovet davri, Toshkent shahar davlat arxivi.

# ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ УЧЕБНО-МАТЕРИАЛЬНОЙ И СОЦИАЛЬНО-БЫТОВОЙ БАЗЫ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ (1948–1958)

Аннотация

В статье на основе документов Ташкентского городского государственного архива анализируется развитие учебно-материальной, технической, социально-бытовой и информационно-ресурсной базы Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков в 1948–1958 гг. Рассматриваются диспропорция между ростом контингента студентов и инфраструктурой, трехсменный режим обучения, а также этапное решение проблем путем строительства новых аудиторий и общежитий. На основе анализа перехода от печатных машинок к магнитофонным фонетическим кабинетам и звуковым лабораториям обосновывается, что развитие института проходило по логике: «дефицит – расширение – специализация – технологическая модернизация».

**Ключевые слова:** Ташкентский государственный педагогический институт иностранных языков, учебно-материальная база, инфраструктура, аудитории, фонетический кабинет, общежитие, библиотека, обучение иностранным языкам, советский период.

# FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL, MATERIAL AND SOCIAL INFRASTRUCTURE OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES (1948–1958)

Annotation

Based on documents from the Tashkent City State Archive, the article analyzes the development of the educational, material, technical, social, and information-resource base of the Tashkent State Pedagogical Institute of Foreign Languages in 1948–1958. It highlights the imbalance between student enrolment growth and institutional infrastructure, the resulting three-shift study schedule, and the subsequent resolution of these issues through the construction of additional classrooms and dormitories. Tracing the technological transition from typewriters to tape-equipped phonetics rooms and sound laboratories, the study demonstrates that the institute’s development followed the sequence of "shortage – expansion – specialization – technological modernization."

**Keywords:** Tashkent State Pedagogical Institute of Foreign Languages, educational infrastructure, material and technical base, classrooms, phonetics room, dormitory, library, foreign-language education, Soviet Uzbekistan; archival history.

**Kirish.** Bugungi kunda O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitish tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta’lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, xorijiy tillarni puxta egallagan yoshlar ulushini ko‘paytirish hamda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va akademik infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar ushbu sohaning tarixiy ildizlari hamda taraqqiyot bosqichlarini chuqur, xolis va ilmiy tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Ushbu strategik ehtiyoj nuqtai nazaridan Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutining (TDCHTPI) tashkil topishi va dastlabki o‘n yillikdagi (1948–1958-yy.) rivojlanish tarixini ilmiy-tarixiy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi sovet davrida xalqaro aloqalarning kengayishi, g‘oyaviy-makuraviy qarama-qarshiliklar hamda xalq xo‘jaligi sohalarida xorijiy tillarni biladigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi oliy ta’lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirishni talab qildi. Biroq, yangi institutni tashkil etish va uning barqaror faoliyatini ta’minlash faqatgina professor-o‘qituvchilar va talabalar tarkibini shakllantirishdan emas, balki eng avvalo uning moddiy-texnik, o‘quv-pedagogik, ijtimoiy-maishiy va axborot-resurs infratuzilmasini yaratishdan iborat edi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi 1948–1958-yillarda Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutining o‘quv-

moddiy va ijtimoiy-maishiy bazasining shakllanish va rivojlanish dinamikasini, uning talabalar kontingenti o‘sishi bilan o‘zaro nisbatini, moddiy ta’minotdagi tanqisliklarni bartaraf etish bosqichlarini hamda ta’lim jarayonini texnologik modernizatsiya qilish jarayonlarini birlamchi manbalar – davlat arxivi hujjatlari asosida har tomonlama, kompleks ravishda ochib berishdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** TDCHTPI faoliyatining 1948–1958-yillardagi tarixi, xususan, uning moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy bazasining shakllanishi hamda rivojlanishini o‘rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda sovet davri tarixshunosligi, mustaqillik davri tadqiqotlari hamda xorijiy tarixshunoslik va metodologik yondashuvlarga ajratish mumkin. Sovet davri tarixshunosligida T.D.Djurayev [1], V.P.Polyakov va L.S.Misulovina [2] risolalarida institutning tashkil etilishi, dastlabki tashkiliy tuzilmasi, professor-o‘qituvchilar tarkibi va faoliyatining ayrim yo‘nalishlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Biroq mazkur risolalarida institutning moddiy-texnik infratuzilmasi, o‘quv binolari, auditoriyalar, kutubxona fondi, talabalar turar joylari va ijtimoiy-maishiy sharoitlari yaxlit tarixiy jarayon sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan.

Mustaqillik davri tarixshunosligida D. Abidova [3], M. Umarxo‘jayev [4] va B.B. Tursunov [5] tadqiqotlarida O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish tizimining shakllanishi, xorijiy tillar ta’limi taraqqiyoti hamda malakali mutaxassislar tayyorlash masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar mavzuning umumiy tarixiy va ta’limiy jihatlarini anglashga xizmat qilsada, TDCHTPIning 1948–1958-yillardagi moddiy-texnik bazasi, xususan, o‘quv binolari va auditoriyalar fondi, kutubxona faoliyati, yotoqxona sharoitlari hamda o‘quv jarayonida foydalanilgan texnik vositalar rivojlanishi arxiv hujjatlari asosida alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati TDCHTPIning 1948–1958-yillardagi moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy bazasi rivojlanishini mavjud tarixshunoslikdagi yondashuvlar bilan qiyoslash hamda arxiv hujjatlari asosida yaxlit tarixiy jarayon sifatida yoritishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiy tamoyillarga amal qilindi. Institut infratuzilmasining rivojlanishi o‘zaro uzviy bog‘liq to‘rtta yo‘nalish: o‘quv-auditoriya bazasi (o‘quv binolari, auditoriyalar soni va sig‘imi, o‘quv jarayonining smenali tashkil etilishi); o‘quv-texnik baza (ixtisoslashtirilgan xonalar, fonetika kabinetlari, laboratoriyalar va texnik vositalar); ijtimoiy-maishiy baza (talabalar turar joylari, oshxona, tibbiy va maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari); axborot-resurs bazasi (kutubxona va kitob-jurnal fondi, kitobxonlar soni, kutubxonaga tashriflar dinamikasi hamda tegishli moliyalashtirish ko‘rsatkichlari) asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy manba bazasini O‘zbekiston Milliy arxivi hamda Toshkent shahar markaziy davlat arxivining P-39-jamg‘armasida (“Toshkent davlat chet tillari pedagogika instituti”) saqlanayotgan arxiv fondlari tashkil etadi. Xususan, mazkur jamg‘armaning 1-ro‘yxatidagi 2, 9, 65, 86, 88, 202, 224 va 243-yig‘ma jildlaridagi moliyaviy-buxgalteriya va statistik hisobotlar, institut buyruqlari, O‘zbekiston SSR Maorif vazirligining qaror va ko‘rsatmalari, shuningdek, institutning o‘quv-tarbiya hamda xo‘jalik faoliyatiga oid hujjatlaridan foydalanildi. Ushbu manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali institut moddiy-texnik imkoniyatlarining shakllanishi, mavjud infratuzilmadan foydalanish darajasi va ijtimoiy-maishiy sharoitlarning o‘zgarish dinamikasini aniqlashga e’tibor qaratildi.

**Tahlil va natijalar.** 4.1. Institutning tashkil etilishi va dastlabki moddiy bazasining holati. SSSR Ministrlar Sovetining 1947-yil 4-oktabrdagi №3485-sonli qarori hamda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 15-yanvardagi №88-sonli qarori asosida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti hamda Toshkent kechki pedagogika instituti tarkibidagi chet tillari fakultetlari negizida mustaqil oliy ta’lim muassasasi – Toshkent davlat chet tillari pedagogika instituti tashkil etilishi belgilandi.

Yangi tashkil etilgan institut uchun Toshkent shahridagi Sapyorlar (Sapyornaya) ko‘chasi, 11-uydagi bino ajratildi. Biroq, ushbu binoning ajratilishi to‘laqonli va samarali ta’lim jarayonini tashkil etish uchun barcha zaruriy infratuzilma mavjud bo‘lganini anglatmas edi. 1952–1953 o‘quv yilida mazkur o‘quv binosida jami 18 ta auditoriya mavjud bo‘lib, ularning umumiy sig‘imi atigi 350 ta o‘quv o‘rniga mo‘ljallangan edi [6]. Bu ko‘rsatkich institut tashkil topgan ilk kunlardanoq uning moddiy-makon bazasi va rejalashtirilgan talabalar kontingenti o‘rtasida jiddiy uzilish va nomutanosiblik mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

4.2. Auditoriya fondi va o‘quv jarayonidagi infratuzilmaviy nomutanosiblik. 1951–1955-yillar oralig‘ida institutning talabalar kontingenti va o‘quv guruhlari soni jadal suratlar bilan o‘sib bordi, biroq auditoriya fondining imkoniyatlari bu o‘sishdan sezilarli darajada ortda qoldi. 1952-1953-o‘quv yili boshida institutda faoliyat yuritayotgan 78 ta talabalar guruhiga atigi 18 ta auditoriya to‘g‘ri kelar edi [8]. Bu shuni anglatardiki, o‘rtacha hisobda bitta auditoriyaga 4–5 ta talabalar guruhi to‘g‘ri kelgan.

Auditoriyalar yetishmasligi sababli o‘quv mashg‘ulotlari nafaqat sinf xonalarda, balki maxsus o‘quv kabinetlari, kutubxonaning o‘quv zallari va hatto ma’muriy xizmat xonalarida ham o‘tkazilishiga majbur bo‘lingan [8]. Arxiv hiujjatlarida mazkur holat “mashg‘ulotlar nihoyatda noqulay va og‘ir sharoitlarda kechmoqda” deya baholangan [8]. Bu shunchaki rasmiy ibora bo‘lmay, balki moddiy infratuzilma tanqisligining ta’lim sifati va dars jarayoniga ko‘rsatgan bevosita salbiy ta’sirini aks ettiruvchi muhim dalil edi.

Mavjud muammoni hal etish va auditoriya fondini kengaytirish maqsadida 1953-yilning avgust oyida o‘quv binosining uchinchi qavatida qurilish ishlari boshlandi va ushbu ob’yekt 1954-yilning mart oyida foydalanishga topshirildi. Natijada institut qo‘shimcha 11 ta yangi xonalarga ega bo‘ldi [9]. Ushbu qurilish auditoriya fondini 18 tadan 27 taga yetkazdi va ta’lim jarayonini ilgari yo‘lga qo‘yilgan va nihoyatda og‘ir bo‘lgan uch smenali rejimdan ikki smenali o‘quv rejimiga o‘tkazish uchun zamin yaratdi [10].

Biroq, hatto ushbu qurilish ham auditoriya tanqisligini to‘liq va uzil-kesil hal qila olmadi. 1954–1955-o‘quv yiliga kelib talabalar soni yanada ortganligi sababli, 27 ta auditoriyaga 80 ta talabalar guruhi to‘g‘ri keldi va dars mashg‘ulotlari yana ertalabki soat 8:30 dan tungi 22:00 gacha davom etadigan uch smenali rejimda tashkil etilishiga to‘g‘ri keldi [11]. Auditoriya fondining 50 foizga oshirilishi (18 tadan 27 taga) talabalar kontingentining o‘sish sur’atlariga tenglasha olmaganligini ko‘rsatadi.

4.3.O‘quv-texnik bazaning ixtisoslashuvi va texnologik modernizatsiya. Chet tillari bo‘yicha ixtisoslashgan pedagogik kadrlar tayyorlash xususiyati oddiy umumta’lim darsxonalaridan tashqari, lingvistik va uslubiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan maxsus texnik va audiovizual vositalarni talab etar edi. XX asrning 40-yillari oxirlarida Respublika institutlarining texnik ta’minoti nihoyatda ibtidoiy darajada edi. Xususan, 1949-yilgi arxiv hujjatlarida keltirilishicha, hattoki xorijiy shriftli yozuv mashinkalarining yetishmasligi jiddiy muammo hisoblangan. Masalan, Toshkent davlat Nizomiy nomidagi pedagogika instituti o‘quv jarayonlari maqsadlarida foydalanish uchun xorijiy shriftli yozuv mashinkasini vaqtincha berib turishni

so‘rab Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutiga rasmiy murojaat qilgan [12] .

XX asrning 50-yillari o‘rtalaridan boshlab chet tillarini o‘qitish metodikasida texnik vositalardan foydalanish sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi . Dastlab xonalar yetishmasligi sababli maxsus fonetika xonalarini tashkil etish kechikkani, bor-yo‘g‘i bitta magnitofon bilan jihozlangan dastlabki fonetika xonasi esa ko‘payib borayotgan talabalar ehtiyojini qondira olmagan [14]. Biroq, ushbu davrdan e’tiboran fonetika mashg‘ulotlarini ovoz yozish va tinglash texnikasi bilan ta’minlash institut rahbariyati va kafedralarning asosiy vazifasiga aylandi.

1956–1958-yillarda institut o‘quv-texnik infratuzilmasida haqiqiy texnologik burilish yuz berdi. Institutda maxsus ovoz texnikasi laboratoriyasi (Laboratoriya zvukotexniki) tashkil etildi [15]. Mazkur laboratoriya o‘z davri uchun zamonaviy va murakkab kompleksni tashkil etgan bo‘lib, ovoz yozish va qayta eshitish apparatura majmuasi, maxsus ovoz yozish studiyasi, o‘quv filmlari va ko‘rgazmali vositalarni namoyish etish uchun mo‘ljallangan kinoproeksiya qurilmalarini o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari maxsus radioizolyatsiyalangan va tovushdan yuqori darajada himoyalangan (akustik ishlov berilgan) 26 ta auditoriya, talabalarning darsdan tashqari va mustaqil ravishda xorijiy tillardagi audioyozuvlarni tinglashi uchun mo‘ljallangan maxsus zal hamda ketma-ket va sinxron tarjima mashg‘ulotlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan maxsus ixtisoslashtirilgan xona tashkil etildi [15].

Bu jarayon institut moddiy-texnik bazasining shunchaki binolardan iborat emas, balki chet tili ta’limining metodik va texnologik talablariga moslashgan zamonaviy ta’lim-laboratoriya majmuasiga aylanganligini ko‘rsatadi.

4.4. Talabalar yotoqxonasi va ijtimoiy-maishiy infratuzilma dinamikasi. Oliy ta’lim muassasasining barqaror va samarali faoliyat ko‘rsatishi faqat o‘quv auditoriyalari bilan emas, balki talabalar hamda professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan ijtimoiy-maishiy sharoitlar bilan ham bevosita belgilanadi. Respublika viloyatlaridan kelib tahsil olayotgan talabalar ulushining yuqoriligi turar joy (yotoqxona) masalasini institut ijtimoiy siyosatining eng o‘tkir muammolaridan biriga aylantirgan edi.

1952-yilgi arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, institut ixtiyorida atigi bitta yotoqxona binosi bo‘lib, uning umumiy maydoni 830 m² bo’lib, 5600 m³ ni tashkil etgan [16] . 1952-yil 15-iyul holatiga ko‘ra, ushbu yotoqxonada 232 nafar talaba istiqomat qilgan [16]. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilar va xodimlar uchun alohida xizmat turar joyi umuman mavjud bo‘lmagan [16] .

Turar joy tanqisligini yumshatish maqsadida O‘zbekiston SSR Maorif vazirligining 1952-yil 26-avgustdagi №655-sonli buyrug‘i bilan Respublika pioner xodimlari maktabi binosining bir qismi ajratilib, 50 o‘rinli vaqtincha yotoqxona tashkil etildi[17]. 1952-1953-o‘quv yilida mavjud yotoqxona maydoni yana 210 m²ga kengaytirildi[18]. Biroq, ushbu choralar o‘sib borayotgan ehtiyojni qoplay olmadi. 1953-1954-o‘quv yilida institutdagi 1060 nafar talabadan 700 nafari (66 foizi) yotoqxonaga muhtoj bo‘lgani holda, mavjud yotoqxona fondi esa barcha qisqartirish va zichlashtirishlardan so‘ng ham atigi 320 o‘ringa ega bo‘lgan[19]. Yotoqxona ikkita binoda joylashgan. Birinchisi Kafanova ko‘chasida 200 o‘rinli 64-sonli yotoqxona va ikkinchisi Shota Rustaveli ko‘chasidagi 120 o‘rinli yotoqxona [20]. Shuningdek, talabalarning ovqatlanish sharoitlarini yaxshilash maqsadida 80 o‘rinli talabalar oshxonasi ishga tushirildi [21]. 1957-58-o‘quv yilida esa institut hududida 400 o‘rinli yangi zamonaviy yotoqxona hamda qo‘shimcha oshxona binolarini qurish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanib, kapital qurilish rejasiga kiritildi [25].

4.5. Kutubxona fondi va axborot-resurs bazasining kengayishi. Chet tillari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda bosma manbalar, darsliklar, lug‘atlar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda xorijiy doriylik va badiiy nashrlar fundamental ahamiyatga ega. Shu sababli kutubxona fondining o‘sish ko‘rsatkichlari institutning axborot-resurs va akademik salohiyatini aks ettiruvchi asosiy mezonlardan biridir.

1951–1952-o‘quv yilida TDCHTPI kutubxonasi fondi 58 000 nusxani tashkil etib, 663 nomdagi turli adabiyotlarni o‘z ichiga olgan [22] . Usbu davrda kutubxonadan 1160 nafar kitobxon (talabalar va o‘qituvchilar) ro‘yxatdan o‘tib foydalangan [22] . Shuningdek, kutubxona obunasiga 85 nomdagi (188 nusxa) jurnallar va 28 nomdagi (108 nusxa) gazetalar kelib tushgan [22].

1954-1955-o‘quv yiliga kelib kutubxona fondi 93 ming nusxaga, kitobxonlar soni esa 1335 nafarga yetdi [23] . Bir yil davomida kutubxonaga 29 ming 733 marotaba tashrif buyurilib, kitobxonlarga 48 mingdan ortiq adabiyot va doriylik nashrlar berilgan[23]. Uch yil ichida kutubxona fondi 35 ming nusxaga yoki 60,3 foizga o‘sganini ko‘rish mumkin.

1956-1957-o‘quv yilida kitob-jurnal fondi 108 ming 200 nusxaga yetdi, kitobxonlar soni 1500 nafardan oshdi [24] . 1957-yil 1-may holatiga ko‘ra bir o‘quv yili davomida 48 ming 263 tashrif va 95 ming 240 ta adabiyot berilishi qayd etildi [24]. 1957-1958-o‘quv yilida umumiy fond 110 ming 821 nusxaga yetdi[25]. Muhim jihati shundaki, ushbu yillardan e’tiboran kutubxona faoliyatida nafaqat miqdoriy o‘sish, balki fondni optimallashtirish va sifat jihatidan yangilash tamoyili ham amalga oshirila boshlandi: ma’nan va jismonan eskirgan 6 ming 29 nusxa adabiyot hisobdan chiqarildi. 1957-yilda 40 ming 52 rubl 50 tiyin evaziga 8 ming 423 ta yangi ilmiy va o‘quv adabiyotlari xarid qilindi [25].

**Xulosa va takliflar.** Arxiv hujjatlari tahlili Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutining 1948–1958-yillardagi o‘quv-moddiy, texnik, ijtimoiy-maishiy va axborot-resurs bazasi jadal o‘sish bilan birga doimiy infratuzilmaviy tanqislik sharoitida shakllanganligini ko‘rsatadi. Dastlab 600 nafar talabaga mo‘ljallangan 18 auditoriyali yagona o‘quv binosida faoliyat yuritilishi uch smenali o‘quv rejimini yuzaga keltirgan. 1953–1954-yillarda uchinchi qavat qurilib, auditoriyalar soni 27 taga yetkazilgan bo‘lsa-da, talabalar kontingentining ortib borishi sababli auditoriya tanqisligi to‘liq bartaraf etilmagan.

1950-yillarning ikkinchi yarmida o‘quv-texnik bazada sifat jihatidan muhim o‘zgarishlar yuz berib, xorijiy shriftli yozuv mashinkalaridan magnitofonli fonetika kabinetlari, akustik izolyatsiyalangan darsxonalar hamda tarjima va audioyozuv studiyalariga ega Ovoz texnikasi laboratoriyasigacha bo‘lgan texnologik rivojlanish kuzatilgan. Bu jarayon chet tillarini o‘qitish metodikasining moddiy-texnik baza bilan uzviy bog‘liq holda modernizatsiya qilinganligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-maishiy va axborot-resurs bazasi ham kengayib, yotoqxona o‘rinlari 232 tadan 320 taga yetkazilgan, 80 o‘rinli oshxona ishga tushirilgan, yangi yotoqxona qurilishiga zamin yaratilgan hamda kutubxona fondi 110,8 ming nusxadan oshgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim tarixiga oid tadqiqotlarda moddiy-texnik va ijtimoiy infratuzilmani ta’lim sifati hamda metodikasini belgilovchi fundamental omil sifatida kompleks o‘rganish; institut (hozirgi O‘zDJTU) tarixini tadqiq etishda Toshkent shahar davlat markaziy arxivi P-39-jamg‘arma hujjatlarini yanada kengroq ilmiy muomalaga kiritish; zamonaviy oliy ta’limni modernizatsiya qilishda esa talabalar kontingenti o‘sishi bilan auditoriya, yotoqxona va laboratoriya imkoniyatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR**


1. Джураев Т.Д. Ташкентский государственный педагогический институт иностранных языков им. Ф. Энгельса (справочник). – Ташкент: Картфабрика н/п «Узгипрозем», 1973. – 48 с.
1. Поляков В.П., Мисуловина Л.С. Ташкентский государственный педагогический институт иностранных языков им. Ф. Энгельса. Краткий исторический обзор о деятельности института к 25-летию его существования. – Ташкент: Издательство «Укитувчи», 1974. – 64 с.
2. Абидова Д. История преподавания иностранных языков в ВУЗах Узбекистана (с 1917 г. – до настоящего времени). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1982. – 192 с.
3. Умархўжаев М. Андижонда хорижий тиллар бўйича мутахассислар тайёрлашнинг ярим асрлик тарихи. – Андижон: АДУ, 2016. – 120 б.
4. Tursunov B.B. O‘zbekistonda xorijiy tillar o‘qitilishi va uning rivojlanish tarixi (XX asrning 2-yarmi – XXI asr boshlari misolida). Monografiya. – Andijon: Step by step print, 2024. – 184 b.
5. Toshkent shahar davlat markaziy arxivi (TSHDMA). P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild.Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 81–82-varaqlar.
6. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild.Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 121-varaq.
7. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 88-yig‘ma jild.Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1953-54 уч.г., 121-varaq.
8. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 121-varaq.
9. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 88-yig‘ma jild.Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1953-54 уч.г., 3-varaq.
10. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 202-yig‘ma jild.Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1954-55 уч.г., 2–3-betlar.
11. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2-yig‘ma jild.Приказы и входящая корреспонденция из Министерства Просвещения УзССР за 1948–1949 годы, 38-varaq.
12. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 9-yig‘ma jild.Годовые бухгалтерские отчеты за 1948 - 1949 - 1950 гг., 141-varaq.
13. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 224-yig‘ma jild. Отчёт о работе Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков за 1956–57 учебный год, 34-bet.
14. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 243-yig‘ma jild.Отчёт о работе Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков за 1957–58 учебный год, 10-varaq.
15. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild.Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 15-varaq.
16. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 65-yig‘ma jild.O‘zbekiston SSR Maorif vazirligining 1952-yil 26-avgustdagi №655-sonli buyrug‘i, 52-bet.
17. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild. Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 18-varaq.
18. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 88-yig‘ma jild.Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1953-54 уч.г., 5-varaq.
19. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 202-yig‘ma jild. Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1954-55 уч.г., 30-bet.
20. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 243-yig‘ma jild .Отчёт о работе Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков за 1957–58 учебный год., 43-varaq.
21. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 86-yig‘ma jild.Статистические отчеты за 1952 - 1953 гг., 15-varaq.
22. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 202-yig‘ma jild. Отчет о работе Ташкентского Государственного педагогического института иностранных языков за 1954-55 уч.г., 28-bet.
23. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 224-yig‘ma jild Отчёт о работе Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков за 1956–57 учебный год, 31–32-betlar.
24. TSHDMA. P-39-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 243-yig‘ma jild .Отчёт о работе Ташкентского государственного педагогического института иностранных языков за 1957–58 учебный год, 41-varaq.